

TURG'UN BIRIKMALARNI NEMIS TILIDAN O'ZBEK TILIGA O'GIRISH YO'LLARI

B.A. Abdiyeva

Sam DCHTI o'qituvchisi

Annotatsiya: *Tezida nemis tilidagi turg'un birikmalarning o'zbek tiliga o'girilish yo'llari, bu borada duch keladiganimiz mos kelish va mos kelmaslik holatlari hamda bunday muammolarga yechim topish masalalarini yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *nemis tili, frazeologizmlar(turg'un birikmalar), tarjima, o'zbek tili.*

Xususan, tarjima haqida gap ketar ekan, tilning eng nozik tarkibiy qismi hisoblanuvchi turg'un birikmalar qatlamini bir tildan boshqa tilga o'girish masalasi ham ancha dolzarb masala hisoblanishini aytib o'tish o'rinlidir. Boshqa tillardagi kabi nemis tili turg'un birikmalarini o'zbek tiliga tarjima qilish ham qiyinchiliklarsiz bo'lmaydi, albatta. Bu jarayonda tarjima qilayotgan tilshunos yoki tarjimon mos kelish, mos kelmaslik va qisman mos kelish kabi holatlarga duch keladi.

Xo'sh, bu holatlar qanday holat? degan savol bizni qiziqtirishi tabiiy holat. Shu o'rinda ushbu holatlar tarifiga qisqacha to'xtalib o'tsak:

Nemis tilidagi turg'un birikmalarni o'zbek tiliga tarjima qilish tarjimashunoslikda uchraydigan asosiy qiyinchiliklarni namoyon etadi. Nemis tilidagi turg'un birikmalarni o'zbek tiliga o'girishda turli imkoniyatlar mavjud. Masalan, shunday imkoniyatlardan biri bu mos kelish hollari hisoblanadi. Bu holatda nemis tilidagi berilgan turg'un birikma ma'nosi o'zbek tilida ham xuddi shu ma'noga mos keladi, ya'ni ular bildiradigan ma'no har ikki tilda ham bir xil talqin qilinadi.

Bu kabi turg'un birikmalarning tarjimasi tilshunos tarjimonlarga katta qiyinchilik tug'dirmaydi. Buning isbotini quyidagi misolda aniq ko'rishimiz mumkin: nemis tilidagi "seinen Anfang nehmen (od. kriegem)" turg'un birikmasining nemischa ma'nosi "anfangen" fe'lga mos kelib, uni o'zbek tiliga tarjima qilganda "boshlamoq, boshlanmoq" degan ma'noni anglatadi. H.Hessening "Steppenwolf" asarida xuddi shu turg'un birikma qatnashgan jumlaning uchratish mumkin. "Damals hatte meine Vereinsamung ihren Anfang genommen".

Taniqli tarjimon M.Akbarov xuddi shu jumlaning o'zbekchaga quyidagicha o'giran. "O'shanda mening yolg'izlikdagi, g'ariblikdagi hayotim boshlangan

edi” (“Cho‘l bo‘risi”). Shundan ayon bo‘ladiki, har ikkala tildagi turg‘un birikmalar bir-biriga ma‘no jihatidan to‘lig‘icha mos kelgan

Yuqoridagi misolni tahlil qilib nemis tilidagi ba‘zi turg‘un birikmalarning ma‘nosi o‘zbek tilidagi turg‘un birikmalar ma‘nosi bilan mos kelar ekan degan xulosaga kelish mumkin. Xuddi shu kabi holat ya‘ni, turg‘un birikmalar tarjimasining mos kelish holati tarjimonlar ishining oson kechishiga va ma‘noning to‘liq ochib berilishiga ko‘maklashadi.

Umuman olganda tarjimaning ham asosiy maqsadi biror chet tilidagi turg‘un birikmani boshqa tilga turg‘un birikma sifatida tarjima qila olish san‘atidir. Bunday tarjima o‘z-o‘zidan bo‘lib qolmaydi, buning sababi esa tarjimondagi katta mahorat va tajribaning mavjud yoki mavjud emasligidir.

O‘zbek tiliga olmon tilidan turg‘un birikmalarni tarjima qilar ekan ko‘pchilik tarjimonlar ikkinchi bir holatga duch kelishlari ham mumkin. Bu – turg‘un birikmalar tarjimasida mos kelmaslik holatidir. Ushbu holatning boshqalaridan ajralib turuvchi asosiy xususiyati bu tildagi turg‘un birikmalarning ichki komponentlarining lug‘aviy ma‘nosi bilan o‘zbek tiliga to‘g‘ridan - to‘g‘ri tarjima qilib bo‘lmasligidadir

Nemis tilidagi turg‘un birikmalarning ichki komponentlari to‘g‘ri ma‘noga ega bo‘lsa-yu, ammo turg‘un birikmaning umumiy ma‘nosi o‘ta kuchli obrazlilikka asoslansa ushbu turg‘un birikmani to‘g‘ridan to‘g‘ri uning komponentlari vositasida tarjima qilib bo‘lmaydi. Bu kabi turg‘un birikmalarni to‘g‘ri ma‘noda tushunmasdan, so‘zma - so‘z tarjima qilishdan ehtiyot bo‘lish lozim. Agar tarjimon tomonidan shunday yo‘l tutilsa, unda turg‘un birikma o‘z asl ma‘nosi va obrazlilikini yo‘qotadi.

Quyidagi misol fikrimiz dalili bo‘la oladi: nemis tilidagi “die Augen schliessen” turg‘un birikmasini o‘zbek tiliga “ko‘z yummoq” deb tarjima qilish yaramaydi, chunki bu turg‘un birikma aslida “sterben” so‘ziga sinonim frazeologik birikmadir. Shunday ekan uni o‘zbek tiliga “vofot etmoq” deb tarjima qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Agar biz uni “ko‘z yummoq deb tarjima qilsak mantiqiy g‘alislikka yo‘l qo‘ygan bo‘lamiz, ze‘ro odam nafaqat vofot etganida, balki, uxlaganda ham ko‘zini yumishi mumkin. Ushbu turg‘un birikma qatnashgan bir gapning mazmunini tahlil qilib ko‘raylik: Tajribali tarjimon Mirzali Akbarov tomonidan tarjima qilingan “Cho‘l bo‘risi” asarida keltirilgan “Men minnatdorlik bilan ko‘zlarimni yumdim va hayotbaxsh ichimlikni xo‘plashda davom etdim” jumlasida “Dankbar schloss ich die Augen und nippte am elixier” gapining nemis tilidan o‘zbek tiliga qilingan tarjimasi hisoblanadi. Ushbu jumladagi turg‘un birikma o‘z ma‘nosida qo‘llanmagan. Bunday tarjimaning mos kelmaslik hollari ham ancha ko‘p uchraydi.

Tarjima qilishning yana bir usuli turg'un birikmalarni tarjimada boshqa birliklar bilan ifodalanishi hisoblanadi. Chet tilidagi biror turg'un birikma ma'nosiga yaqin, ammo turg'un birikma bo'lmagan boshqa birlik bilan berish ushbu holatning tarjimada aks etishi hisoblanadi.

Umuman olganda, bunday holatda nemis tilidagi turg'un birikma o'zbek tiliga o'girilayotganda, o'z obrazlilikini yo'qotadi va oddiy so'z yoki so'z birikmasi bilan tarjima bo'ladi. Masalan, nemis tilidagi "zur Ruhe kommen" turg'un birikmasini nemis tilida "sich beruhigen" fe'liga sinonim hisoblanadi. O'zbek tiliga esa, "tinchlanmoq" deb tarjima qilinadi. Vaholangki, tinchlanmoq so'zi hech qanday obrazlilik ham kasb etmaydi, turg'un birikma bo'lib ham kela olmaydi. Endi shu jumla qatnashgan misolni ko'rib chiqaylik. "Statt deine Welt zu verengern, deine Seele zu vereinfachen, wirst du immer mehr Welt, wirst schliesslich die ganze Welt in deine schmerzlich erweiterte Seele aufnehmen msse, um vielleicht einmal zum Ende, zur Ruhe zu kommen".

"O'z olamingni toraytirish, o'z qalbingni soddalashtirish o'rniga sen endi, ehtimol oxiratga abadiy oromga yetishish uchun yanada kengroq olamni, pirovardida butun dunyoni o'zingning qayg'u - hasratla kengaygan qalbing, ko'nglingga sig'dirishingga to'g'ri keladi",- deb tarjima qilgan edi tarjimon M.Akbarov.

Ushbu jumlada ifodalangan " zur Ruhe kommen " frazeologizmi aynan "tinchlanmoq" deb emas, balki "abadiy oromga yetishish" orqali ifodalangan. Bu yerda turg'un birikma tarjimasi turg'un birikma bilan emas, balki boshqa birlik bilan ifodalangan.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, turg'un birikmalarni tarjimada mos kelmasligi holati yoki ularning boshqa birikmalar bilan ifodalanishi tarjimada takror muammosining yechimi ham hisoblandi, tarjimonni bir xillikdan qochishga yo'naltiradi.